

SHIMOLIY BAQTRIYANING ELLINISTIK DAVLATLAR HUKMRONLIGI DAVRI TARIXIY GEOGRAFIYASI

Xoliyarov To'liqinjon Chorshanbiyevich

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0009-0003-5440-0961>

UO'K 94(575.151)91(571.1)(091)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shimoliy Baqtriyaning ellin davri tarixiy geografiyasi kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda antik davr yozma manbalari va zamonaviy arxeologik qazishmalar qo'llanildi. Hududiy lokalizatsiya, urbanizatsiya jarayonlari, harbiy yurishlar geografiyasi va savdo yo'llari tizimi qayta tahlil qilindi. Natijalar Shimoliy Baqtriyaning Markaziy Osiyodagi eng muhim ellinistik transformatsiya markazlaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Shimoliy Baqtriya, Yunon-Baqtriya davlati, makedoniyalik Aleksandr, arxeologik geografiya, lokalizatsiya, qadimgi shaharlar, Amudaryo (Oks), Kampirtepa, Termiz.

Аннотация: В данной статье на основе комплексного подхода анализируется историческая география Северной Бактрии эллинистического периода. В исследовании использованы древние письменные источники и современные археологические раскопки. Были заново проанализированы процессы территориальной локализации, урбанизации, география военных походов и система торговых путей. Результаты показывают, что Северная Бактрия была одним из важнейших центров эллинистической трансформации в Центральной Азии.

Ключевые слова: Северная Бактрия, Греко-Бактрийское царство, Александр Македонский, археологическая география, локализация, древние города, Амударья (Окс), Кампыртепа, Термез.

Abstract: This article analyzes the historical geography of Northern Bactria during the Hellenistic period based on a comprehensive approach. The study utilized ancient written sources and modern archaeological

excavations. Territorial localization, urbanization processes, the geography of military campaigns, and the system of trade routes were re-analyzed. The results show that Northern Bactria was one of the most important centers of Hellenistic transformation in Central Asia.

Keywords: Northern Bactria, Greco-Bactrian Kingdom, Alexander the Great, archaeological geography, localization, ancient cities, Amu Darya (Oxus), Kampyrtepa, Termez.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Baqtriya qadimgi Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin egallagan tarixiy-madaniy o'lkalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ellinizm davrida Shimoliy Baqtriya hududda yuz bergan siyosiy o'zgarishlar, yangi davlat tuzilmalarining shakllanishi va urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi uning tarixiy geografiyasini o'rganishni dolzarb ilmiy masalaga aylantiradi. Bu davrda hudud makedoniyalik Aleksandr yurishlari natijasida ellin dunyosi bilan bevosita aloqaga kirishib, keyinchalik Salavkiylar va Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibida rivojlangan.

Shimoliy Baqtriyaning ellinistik davr tarixiy geografiyasini tadqiq etishda asosiy e'tibor qadimgi yunon-rim mualliflari asarlarida qayd etilgan geografik nomlarning lokalizatsiyasiga, savdo yo'llarining shakllanishi va rivojlanishiga, aholi manzilgohlarining hududiy joylashuvi hamda ularning tabiiy muhit bilan o'zaro ta'siriga qaratiladi. Shu bilan birga, ushbu davrda shakllangan siyosiy chegaralar va ma'muriy birliklarning hududiy xususiyatlarini aniqlash ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda tarixiy geografiya muammolarini o'rganishda arxeologik tadqiqotlar, ayniqsa arxeologik geografiya yondashuvi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Arxeologik qazilmalar natijasida aniqlangan yangi moddiy manbalar qadimgi yozma manbalardagi ma'lumotlarni aniqlashtirish, ayrim hollarda esa qayta ko'rib chiqish imkonini bermoqda. Natijada qadimgi viloyatlar, shaharlar va qal'alarining joylashuvi hamda ularning rivojlanish bosqichlari haqida yanada aniqroq ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Shimoliy Baqtriyaning ellinistik davr tarixiy geografiyasi masalasi qadimgi yozma manbalar va zamonaviy arxeologik tadqiqotlar kesishgan nuqtada shakllangan murakkab ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar evolyutsiyasi uch asosiy bosqichga ajratiladi: klassik (antik manbalar tahlili), sovet davri ilmiy maktabi va zamonaviy (interdisiplinar) yondashuv.

Birinchii bosqichda tadqiqotlar asosan yunon-rim mualliflari – Arrian [1, V, 12, 2.], Kvint Kursiy Ruf [2, VIII. 4, 1-5, 2.], Strabon [3, XI, XI, 4.] va boshqalarning asarlariga tayangan holda olib borilgan. Ushbu manbalarda Baqtriyaning siyosiy chegaralari, shaharlar joylashuvi va harbiy yurishlar yo'nalishlari haqida muhim ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ular ko'pincha umumiy va ba'zan qarama-qarshi tavsiflarga ega. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda bu ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish zarurati yuzaga kelgan.

Ikkinchi bosqich – XX asrning ikkinchi yarmi va sovet davri tadqiqotlari bilan bog'liq bo'lib, bunda tarixiy geografiya masalalari arxeologik materiallar asosida qayta ko'rib chiqildi. Bu davrda ayniqsa Baqtriya va So'g'd hududlarida olib borilgan keng ko'lamli qazishmalar natijasida ko'plab yodgorliklar aniqlanib, ularning lokalizatsiyasi ilmiy asosda taklif qilindi. Mazkur tadqiqotlar tarixiy topografiyani aniqlashtirishda muhim burilish yasadi.

Zamonaviy bosqichda esa tarixiy geografiyani o'rganishda interdisiplinar yondashuv ustunlik qilmoqda. Xususan:

- arxeologik geografiya;
- landshaft arxeologiyasi kabi metodlar keng qo'llanilmoqda.

So'nggi yillarda xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan tadqiqotlarda Shimoliy Baqtriyaning urbanizatsiya jarayonlari, savdo yo'llari va sug'orish tizimlari kompleks tarzda o'rganilmoqda.

Biroq shunga qaramay, quyidagi muammolar hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda:

- ayrim toponimlarning aniq lokalizatsiyasi (masalan, Paretaka, Bubakena);
- Aleksandr yurishlari marshrutlarining to'liq rekonstruksiyasi.

Shu sababli mazkur maqola mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish va yangi arxeologik ma'lumotlar bilan boyitishga qaratilgan.

Mazkur maqola Shimoliy Baqtriyaning ellinistik davr tarixiy geografiyasini kompleks o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda bir nechta zamonaviy ilmiy metodlar qo'llanildi.

Birinchidan, tarixiy-komparativ metod asosida yunon-rim mualliflari asarlarida keltirilgan ma'lumotlar o'zaro solishtirildi. Bu yondashuv turli manbalarda uchraydigan tafovutlarni aniqlash va ularni ilmiy izohlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, lokalizatsiya metodi qo'llanilib, qadimgi toponimlar zamonaviy geografik obyektlar bilan taqqoslandi. Bunda yozma manbalar bilan bir qatorda arxeologik topilmalar, topografik xususiyatlar va gidrografik tizimlar ham hisobga olindi.

Uchinchidan, arxeologik-geografik yondashuv asosida hududdagi qadimgi aholi manzilgohlari, qal'alar va shaharlarning joylashuvi hamda ularning tabiiy muhit bilan o'zaro aloqasi tahlil qilindi. Bu usul antropogen landshaftlarning shakllanish jarayonini tushinishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

To'rtinchidan, interdisiplinar yondashuv asosida tarix, arxeologiya, geografiya va toponimika fanlari kesishmasida tahlillar olib borildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirdi.

Maqolaning metodologik yangiligi shundan iboratki, unda yozma manbalar va arxeologik

dalillar sintezi asosida Shimoliy Baqtriyaning ellinistik davrdagi tarixiy geografiyasi qayta talqin qilinadi hamda ayrim bahsli hududlar bo'yicha muqobil ilmiy qarashlar ilgari suriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION). Tahlil natijalari Shimoliy Baqtriyaning ellinistik davrdagi tarixiy geografiyasi murakkab va ko'p qatlamli tizim ekanligini ko'rsatdi. Yozma manbalar va arxeologik dalillarni o'zaro solishtirish orqali hududning siyosiy-hududiy tuzilishi, aholi manzilgohlarining joylashuvi va ularning rivojlanish dinamikasi aniqlashtirildi.

Birinchi navbatda, yunon-rim mualliflari asarlarida qayd etilgan toponimlarning lokalizatsiyasi masalasi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, qadimgi manbalarda uchraydigan ayrim geografik nomlar (masalan, Paretaka, Bubakena, Gabaza) zamonaviy ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ushbu maqola doirasida ular tabiiy-geografik omillar (tog' tizmalari, daryo havzalari) hamda arxeologik yodgorliklar joylashuvi asosida qayta baholandi. Xususan, Paretaka Hozirgi Surxondaryo viloyatining shimoliy-g'arbiy qismi, Hisor va Bobotog' tog'lari oralig'i bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslandi [4, 93].

Ikkinchi muhim natija sifatida makedoniyalik Aleksandr yurishlari yo'nalishining rekonstruksiya amalga oshirildi. Tahlillar natijasida uning qo'shinlari harakati Baqtra (Balx) – Oks (Amudaryo) – Marg'iyona yo'nalishida bo'lganligi tasdiqlandi. Shu bilan birga, ayrim manbalarda uchraydigan Marg'iyona shahrining lokalizatsiyasi bo'yicha mavjud qarashlar solishtirilib, uning an'anaviy tarzda qadimgi Marv hududi bilan bog'lanishi nisbatan asosli ekanligi aniqlandi, biroq muqobil gipotezalar (Eski Termiz yoki Bandixon bilan bog'lash [5, 135]) ham mavjud.

Uchinchi natija – Shimoliy Baqtriya hududidagi urbanizatsiya jarayonlari tahlili bilan bog'liq. Arxeologik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, ellinistik davrda hududda turli o'lchamdagi aholi manzilgohlari shakllangan bo'lib, ular quyidagi guruhlarga ajratildi:

– yirik shahar markazlari (10 gektardan

ortiq);

– o'rta hajmdagi shaharlar (3–10 gektar);

– kichik manzilgohlar (1–3 gektar);

– mayda qishloq tipidagi punktlar (1 gektargacha) [6, 188].

Bu tasnif hududda urban tizimning iyerarxik xarakterga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Yirik markazlar savdo va ma'muriy funksiyalarni bajargan bo'lsa, kichik manzilgohlar agrar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan.

To'rtinchi natija sifatida Kampirtepa, Eski Termiz va boshqa yodgorliklar misolida ellinistik davr shaharsozlik xususiyatlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, hududda yunon shaharsozlik an'analari to'liq emas, balki mahalliy an'analalar bilan sintezlashgan holda namoyon bo'lgan. Bu holat ellinizmning periferik hududlardagi moslashuvchan xarakterini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olingan natijalar Shimoliy Baqtriyaning ellinistik davrdagi tarixiy geografiyasi quyidagi asosiy xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi:

1. Hududiy tuzilmaning murakkabligi va ko'p darajaliligi;

2. Urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi;

3. Mahalliy va yunon madaniy elementlarining sintezi;

4. Savdo yo'llari va harbiy strategik omillarning hudud rivojiga kuchli ta'siri.

Mazkur natijalar nafaqat Shimoliy Baqtriya tarixiy geografiyasini aniqlashtirishga, balki umuman Markaziy Osiyoda ellinizm davri jarayonlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari Shimoliy Baqtriyaning ellinistik davrdagi tarixiy geografiyasi masalasini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Olingan ma'lumotlar nafaqat ilgari mavjud bo'lgan ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi, balki ayrim holatlarda ularni to'ldiradi yoki qayta talqin qilish imkonini beradi.

Birinchidan, toponimlarning lokalizatsiyasi masalasida mavjud ilmiy yondashuvlar o'rtasida sezilarli tafovutlar borligi aniqlandi. Yunon-rim mualliflari tomonidan keltirilgan geografik nomlar ko'pincha umumlashtirilgan yoki nisbiy tavsifga ega bo'lib, ularni zamonaviy geografik makon bilan to'g'ridan-

to'g'ri bog'lash murakkab jarayon hisoblanadi. Shu sababli, mazkur tadqiqotda qo'llangan kompleks yondashuv – yozma manbalar, arxeologik dalillar va tabiiy-geografik omillarni birgalikda tahlil qilish – nisbatan ishonchliroq natijalarni taqdim etdi.

Ikkinchidan, makedoniyalik Aleksandr yurishlari yo'nalishining rekonstruksiya masalasi ham muhokamaga loyiqdir.

Uchinchidan, urbanizatsiya jarayonlari tahlili ellinistik davrda Shimoliy Baqtriyada shahar tizimining shakllanishi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud:

Birinchidan, yozma manbalar sonining cheklanganligi va ularning subyektiv xarakteri ayrim xulosalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilishni talab etadi;

Ikkinchidan, arxeologik tadqiqotlar hali barcha hududlarni to'liq qamrab olmagan, bu esa ayrim lokalizatsiya masalalarida noaniqliklarni saqlab qolmoqda.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar istiqbolli deb hisoblanadi:

- yangi arxeologik qazilmalar asosida ma'lumotlar bazasini kengaytirish;

- GIS va raqamli kartografiya asosida tarixiy rekonstruksiyalarni aniqlashtirish;

- paleoekologik tadqiqotlar orqali inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqurroq o'rganish.

Umuman olganda, ushbu muhokama natijalari Shimoliy Baqtriyaning ellinistik davrdagi tarixiy geografiyasi murakkab, ko'p omilli va dinamik tizim bo'lganligini tasdiqlaydi hamda bu yo'nalishda interdisiplinar tadqiqotlarning ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Mazkur tadqiqot natijalari Shimoliy Baqtriyaning ellinistik davrdagi tarixiy geografiyasi murakkab, ko'p omilli va dinamik rivojlangan tizim ekanligini ko'rsatdi. Yunon-rim yozma manbalari va arxeologik dalillarni kompleks tahlil qilish orqali hududning siyosiy-hududiy tuzilishi, aholi manzilgohlarining joylashuvi hamda ularning rivojlanish jarayonlari aniqlashtirildi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ellinistik

davr Shimoliy Baqtriya tarixida muhim burilish bosqichi bo'lib, bu davrda hududda urbanizatsiya jarayonlari jadallashgan, yangi shahar markazlari shakllangan va mavjud manzilgohlar qayta tashkil etilgan. Shu bilan birga, yunon va mahalliy madaniy an'analar sintezi natijasida o'ziga xos tarixiy-geografik muhit vujudga kelgan.

Toponimlarning lokalizatsiyasi masalasida olib borilgan tahlillar ayrim hududlar (xususan, Paretaka, Bubakena va boshqa o'lkalar) bo'yicha mavjud ilmiy qarashlarni aniqlashtirish imkonini berdi. Makedoniyalik Aleksandr yurishlari yo'nalishining rekonstruksiya esa hududning strategik ahamiyatini va uning harbiy-siyosiy tizimdagi o'rnini yanada ravshanlashtirdi.

Arxeologik ma'lumotlar asosida Shimoliy Baqtriya hududida aholi joylashuvi iyerarxik tizimga ega bo'lganligi, yirik shahar markazlari va kichik qishloq manzilgohlari o'rtasida funksional farqlar mavjudligi aniqlandi. Bundan tashqari, Amudaryo bo'yidagi hududlar, ayniqsa kechuvlar, savdo va transport tizimida muhim rol o'ynagan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Arxeologik tadqiqotlarni kengaytirish. Shimoliy Baqtriya hududida hali to'liq o'rganilmagan arxeologik yodgorliklarda tizimli qazishmalar olib borish zarur. Bu ayniqsa bahsli hududlar (Paretaka, Bubakena va boshqalar) lokalizatsiyasini aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega;

2. GIS va raqamli texnologiyalarni joriy etish. Tarixiy-geografik obyektlarni aniqlash va rekonstruksiya qilishda geoinformatsion tizimlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu qadimgi savdo yo'llari va aholi manzilgohlarini aniqroq modellashdirish imkonini beradi;

3. Yozma va arxeologik manbalarni integratsiyalash. Antik mualliflar asarlarini zamonaviy arxeologik ma'lumotlar bilan uyg'unlashtirish orqali yanada ishonchli ilmiy xulosalar chiqarish mumkin;

4. Interdisiplinar tadqiqotlarni rivojlantirish. Tarix, arxeologiya, geografiya, geologiya va ekologiya fanlari kesishmasida kompleks tadqiqotlar olib borish Shimoliy Baqtriyaning tarixiy geografiyasini chuqurroq anglash

imkonini beradi;

Umuman olganda, mazkur tadqiqot Shimoliy Baqtriyaning ellinistik davrdagi tarixiy geografiyasini yanada chuqurroq

o'rganish uchun ilmiy asos yaratadi va bu yo'nalishda kelgusidagi izlanishlar uchun muhim metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Qadimgi yozma manbalar:

1. Априан. Поход Александра. / Пер. М.Е. Сергеевко. Вступ. ст. О.О.Крюгера. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1962. – 384 с.

2. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. – М., 1963. Т. VIII. 4, 1-5, 2.

3. Страбон. География. XI, XI, 4.

2. Zamonaviy ilmiy manbalar:

4. Xoliyarov T. Shimoliy Baqtriyaning tarixiy geografiyasi. Tarix fan. bo'y. fals. dokt. (PhD)... diss. – Termiz, 2023. – 157 б.

5. Сверчков Л.М. Курганзол — крепость Александра на юге Узбекистана. —Ташкент: СМИ-АСИА, 2013. – 186 с.

6. Базаров Б.Б. Историко-географический обзор Сурхандари эллинистического времени (конец IV – конец II вв. до н. э.) // Актуальная археология 6. Материалы международной научной конференции молодых ученых Санкт-Петербург, 4–7 апреля 2022 г. – С. 186-189.